
QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI SOY BO'YI MAHALLASIDA BO'LDI

Yurtimizda koronavirus pandemiyasi tarqalishini oldini olish maqsadida joriy etilgan karantin kunlarida aholi salomatligini saqlash, belgilangan qoidalarga rioya etilishini ta'minlash hamda oziq-ovqat, dori-darmon, tibbiy niqob va antiseptik vositalarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish maqsadida tuman hokimi I. Novikov 1-sektor hududidagi Soy bo'yi mahalla fuqarolar yig'inida bo'ldi. Oziq-ovqat do'konlari kundalik zarur mahsulotlar bilan ta'minlanganligi va narx-navoni sun'iy oshirmaslik yuzasidan savdo shaxobchalari rahbarlari bilan suhbatlashdi.





Shuningdek, aholini tomorqa yer maydonlaridan qanday foydalanayotganiga alohida e'tib qaratdi. Xonadonida issiqxona barpo etgan hamda tomorqasiga turli qishloq xo'jaligi ekinlarini ekib daromad olishga harakat qilayotgan mehnatkash insonlarning karantin davridagi faoliyatlari bilan yaqindan tanishib, o'zining takliflarini berdi.









2020-04-16 14:33:16